

JEYN OSTINNING “PRIDE AND PREJUDICE” ROMANIDA AYOLLAR OBRAZI VA GENDER MASALALARI

Xodjayeva Dilafro'z Izatilloyevna,
PhD, dotsent, BuxDU

Bozorova Xurshida Botirovna
BuxDU 1-bosqich

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz yozuvchisi Jeyn Ostinning “Pride and Prejudice” romanida tasvirlagan ayollar obrazı tahlil qilingan va gender masalalari ko’rib chiqilgan. Yozuvchi uslubi badiiy asar qahramonlari bo’lgan ayollar obrazı va xarakteri orqali tahlil qilinib, romandan keltirilgan parchalar yordamida ochib berilgan. Asar yaratilgan davrda mayjud ijtimoiy hayot va gender masalalari, jamiyatda ayol va erkak o’rni hamda munosabati, oila va nikoh munosabatlari, hamda ularga nisbatan erkak va ayollarning bir-biridan farq qiluvchi va o’xshash qarashlari, shuningdek, fikr erkinligi va insoniy munosabatlar tahliliga e’tibor qaratilgan. Asarda o’z davrining dolzarb muammolaridan biri bo’lgan jamiyatda va hayotda ayollar o’rni masalasi ko’ndalang qo’yilgani yoritilgan. Adabiyotlar tahlili qismida dunyoning mashhur olimlari tomonidan romanning tahlili va asar qahramoni haqidagi fikrlari keltirib o’tilgan. Maqolaning amaliy qismida keltirilgan fikrlar tahlil qilinib obrazlar xarakteri oydinlashtirilgan, shuningdek, asardan keltirilgan parchalar orqali qahramonlarning xarakteri va gender tenglik uchun kurashishi masalalari ochib berilgan. Bundan tashqari, yozuvchining va asar qahramoni Elizabeth Bennetning oila va nikoh borasidagi qarashlari ham tahlil qilingan. Gender masalasi insoniyat hayotining turli jabhalari uchun o’ziga xoslikka ega bo’lib, odamlarning his-tuyg’ulari, o’zini tutishi, atrof-olam bilan o’zaro munosabati, aksiologik yo’nalishlarni erkak va ayol sifatida qabul qilish va o’zlashtirishi ilm-fanning turli sohalarida dolzarb bo’lib qoldi. Maqola so’ngida qilingan tahlillar yuzasidan xulosalar chiqarilgan.

Kalit so’zlar: Ayol obrazı, gender, badiiy adabiyot, badiiy obraz, shaxs va jamiyat, gender tenglik, yozuvchi uslubi, status, syujet.

IMAGE OF WOMEN AND GENDER ISSUES IN PRIDE AND PREJUDICE BY JANE AUSTEN

Khodjayeva Dilafruz Izzatullaevna,
PhD, associate professor, BukhSU

Bozorova Khurshida Botirovna
BukhSU, Master student

Abstract. This article analyzes the image of women described by the English writer Jane Austen in the novel «Pride and Prejudice» and considers gender issues. The writer’s style is analyzed through the image and character of the women who are the heroes of the work on the basis of passages taken from the novel. The writer focuses on the social life and gender issues existing at the time of the creation of the work, the role and relationship of women and men in society, family and marriage relations, as well as the different and similar views of men and women in relation to them, the analysis of freedom of thought and human relations. In the work, the issue of the status of women in society and in life, which is one of the urgent problems of its time, is highlighted. In the practical part, the analysis of the novel and the opinions of the famous scientists of the world are given. The presented ideas were analyzed and the character of the images was clarified. In the analytical part of the article, the character of the heroes and the struggle for gender equality are revealed through excerpts from the work. In addition, the views of the writer and the hero of the work on family and marriage are also analyzed. The issue of gender is peculiar in different aspects of human life, people’s feelings, behavior, interaction with the environment, acceptance and reduction of axiological orientations as male and female have become relevant in various fields of science. At the end of the article conclusions were drawn from the analysis.

Key words. Female image, gender, fiction, literary personage, person and society, gender equality, writer’s style, status, plot.

**Образ женщины и гендерные вопросы в романе Джейн Остин
«Гордость и предубеждение»
Ходжаева Дилафруз Иззатуллаевна,
PhD, доцент, БухГУ**

**Бозорова Хуриида Ботыровна.
БухГУ, магистр**

Аннотация. В данной статье анализируется образ женщин, описанный английской писательницей Джейн Остин в романе «Гордость и предубеждение», а также рассматриваются вопросы гендеря. Стиль писателя анализируется посредством образа женщин, являющихся героями произведения, и раскрывается с использованием отрывков из романа. Писатель фокусируется на социальной жизни и гендерных вопросах, существовавших на момент создания произведения, роли и отношениях женщин и мужчин в обществе, семейных и брачных отношениях, а также различных и схожих взглядов мужчин и женщин, анализе свободы мысли и человеческих отношений. В работе выделяется проблема статуса женщин в обществе и жизни, которая является одной из насущных проблем своего времени. В практической части представлен анализ романа и мнений известных ученых мира. Представленные идеи были проанализированы, и характер образов был уточнен. В аналитической части статьи раскрывается характер героев и борьба за гендерное равенство через отрывки из произведения. Кроме того, анализируются взгляды писателя и героя произведения на семейные и брачные отношения. Гендерная проблема уникальна для различных аспектов человеческой жизни, чувств, поведения, взаимодействия с окружающей средой, принятия и сокращения аксиологических ориентаций, так как разделение на мужское и женское стали актуальными в различных областях науки. В конце статьи делаются выводы из проведенного анализа.

Ключевые слова: Женский образ, гендер, художественная литература, литературный персонаж, личность и общество, гендерное равенство, стиль писателя, статус, сюжет.

Kirish. Ayol va jamiyat masalasi har qanday jamiyat hayotining asosiy va dolzARB hisoblangan markaziy va asosiy nuqtalaridan biri sanaladi. Gender masalasi insoniyat hayotining turli jabhalari uchun o'ziga xoslikka ega bo'lib, odamlarning his-tuyg'ulari, o'zini tutishi, atrof-olam bilan o'zaro munosabati, aksiologik yo'nalichlarni erkak va ayol sifatida qabul qilish va o'zlashtirishi ilm-fanning turli sohalarida dolzARB bo'lib qoldi.

Bizga ma'lumki, badiiy asarni yaratishdan maqsad o'quvchiga badiiy-estetik zavq berish. Asarlar ma'lum bir davr va jamiyatda yaratilgan bo'lsada keng omma uchun mo'ljallangan. Bir necha asrlar mobaynida o'z qadr-qimmatini va auditoriyasini saqlab qolgan asarlar talaygina. Turli sohalarda bo'lgani kabi gender masalasi adabiyotni ham chetlab o'tgani yo'q albatta. Jamiyat ongingin jins masalasidagi asosiy tushunchasi bu erkak va ayol sifatlari bo'ladigan bo'lsa, gender erkaklik va ayollik terminlari yordamida namoyon bo'ladi. [9,5] Har bir jins vakili uchun har bir jamiyatda gender jihatidan me'yorni taqozo etadigan erkak va ayolga xos bo'lgan ma'lum bir majburiyatları va tushunchalari mavjudki, ularni inkor etib bo'lmaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ingliz adabiyotida eng yorqin iz qoldirgan ayol yozuvchilardan biri bo'lgan Jeyn Ostinning asarlari butun dunyo kitobxonlari tomonidan sevib o'qilishi va adabiyotchilarning ko'plab tahlil manbai ekanligi hech kimga sir emas albatta. Bir qator olimlar tomonidan asar va uning qahramonlari sinchkovlik bilan tahlilga tortilgan. T.Tannerning fikriga e'tibor qaratadigan bo'lsak, uningcha Jeyn Ostin asari qahramoni bo'lgan Elizabethni mukammallashtirishga harakat qilib unga juda ko'p joziba bergan [6, 156]. Bunga qarshi tarzda M.Waldron esa obraz yetarlicha mukammallashtirilmagan deya ta'kidlaydi [7, 233]. Uning asaridagi qahramonlar oddiylikdan yiroq bo'lib, o'z davrining siyosati va yangiliklaridan boxabar bo'lgan va doimo mukammallikka erishishga intilgan ayollardir. Ingliz yozuvchisi asarlari qahramonlari ayollar bo'lar ekan, shu qahramonlar orqali ayollarning olamni qabul qilishi va anglashini ko'rsatib berishga harakat qilgan. J. Weinsheimer o'zining "Chance and the Hierarchy of Marriages in Pride and Prejudice" nomli maqolasida asar yaratilgan davr va o'sha davrdagi nikoh masalalari haqida fikr bildirib tahlillar olib borgan va asar Elizabeth Bennet

hamda asarda keltirilgan personajlarning oila va nikoh haqida fikrlarini o'sha zamondagi hayot va ijtimoiy qarashlar nuqtai nazaridan oydinlashtirib bergan [8, 404-419].

Feminizm va gender masalalari June Hannamning "The Book of Feminism" (England, 2007), Jane Philcer va Imelda Whelehaning "Fifty Keys Concepts in Gender Studies" (London, 2004), B. Daviesning "Gender Theories in Education" (New York, 1996), Betty Friedanning "The Feminine Mystique" (New York, 1963) asarlarida ilmiy tahlil qilingan.

M. B. Ahmedova o'zining "The concept of gender in Sister Carrie by Theodore Dreizer" maqolasida "gender" tushunchasini quyidagicha izohlaydi. [5,3]

The concept "gender" came into widespread use through the development of feminist theory and gender studies. It is based on the theory of social constructivism, whose representatives (mainly feminist writers) It questions the natural emergence of differences between people and explains them in social processes. The term «gender» is meant to criticize the simple idea of «biology as destiny» and refers to the ideology of gender equality.

XIX asrda ingлиз jamiyatida ayollarning o'rni va roli bir muncha o'zgara borga, ya'ni ayollarning madaniy qadriyatlarga bo'lgan ta'siri, oila, ta'lim sohalarida ularning tashabbuskorligi va oddiy uybekaligidan turli sohalarda o'zini namoyon eta boshlashi yozuvchi qahramon ayollarining maqsad yo'lini belgilab bergan.

Tahlillar va muhokama. Jeyn Ostinning "Pride and Prejudice" romani qahramoni Elizabeth Bennet yozuvchi tomonidan o'ziga xos xarakterga ega ayol sifatida gavdalantirilgan, ya'ni u rostgo'y, samimiyligini va hamma narsani to'g'ri qabul qiladigan inson bo'lib, uning aql-farosati va fikrlash doirasi kengligi kabi fazilatlari alohida ajralib turadi. Uning onasi bo'l mish Bennet xonim uni turmushga uzatish bilan ovora bo'lgan bir vaqtda Elizabeth umuman boshqa xayollar bilan band edi. Oyisi esa uni moliyaviy ahvoli yaxshi bo'lgan insonga turmushga berish orqali qizning jamiyatdagi statusini oshirish, oilaning kambag'allik botqog'iga tushub qolmasligi uchun yonib-kuyardi.

Mister va missis Bennetlarning suhbatlari va fikrlari orqali gender masalalarini yaqqol ko'rishimiz mumkin. Ular orasidagi dialoglarda ayol kelayotgan ijarachi yigitning bo'ydoq va boy ekanligi haqida gapirganida qizlaridan birini unga uzatish masalasiga sha'ma qilib fikr bildirayotganida toki rafiqasi buni ochiq-oydin aytmagunicha janob Bennetning hayoliga bu masala kelmaydi.

Asarda tasvirlangan qahramonlar turli xarakterga ega bo'lgan shaxslar bo'lib, ular o'sha davr ingliz jamiyatidagi insonlar namunasi edi. Elizabethning otasi qizlarimning bir-biridan hech qanday farqi yo'q, ular shunchaki o'z yoshlariga xos bo'lgan tentak va omi deya ta'riflaganda kenja qizining opasingillaridan ko'ra ma'niliroq ekanligini aytib o'tadi.

Asarni o'qir ekanmiz, unda o'sha paytdagi jamiyatda ayol va erkakning statusi hamda dunyoqarashi orasida katta farq bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Misol uchun roman qahramoni Elizabethning otonasiga keltirilgan ta'rifni oladigan bo'lsak, asarda shunday parcha keltirilgan:

Mr. Bennet was so odd a mixture of quick parts, sarcastic humour, reserve, and caprice, that the experience of three-and-twenty years had been insufficient to make his wife understand his character. Her mind was less difficult to develop. She was a woman of mean understanding, little information, and uncertain temper. When she was discontented she fancied herself nervous. The business of her life was to get her daughters married; its solace was visiting and news. [1,3]

Yuqorida keltirilgan parchadan shuni ko'rish mumkinki, o'sha davr ingliz jamiyati hayotida ayollarning o'rni jamiyat hayotida juda passiv va ularning faqatgina uy-ro'zg'or bilan bandligiyu, qizlariga munosib kuyov qidirish hayollari bilan bandligi, ta'riflab o'tilganidek, o'sha paytda ko'p uchraydigan ayollar orasidagi savodsizlik kabi nozik masalalarga alohida urg'u berilib o'tilgan. Biroq roman qahramoni Elizabeth opa-singillaridan aqlliroy va farosatliligi ham alohida ta'kidlanganki, yozuvchi bunda o'sha davrda ayollarning ham jamiyatning turli jabhalarida faoliyat yuritishlari istagini namoyon etgan.

"I should never consider the distance as one of the advantages of the match" cried Elizabeth. ' I should never have said that Mrs. Collins was settled near her family'. [1, 186].

Berilgan parchadan shu narsa yaqqol ko'rindiki, Elizabeth Bennet uchun nikoh va oila, insonlar orasidagi his-tiyg'u va jamiyat taqazo etgan qandaydir rishtalar shunchaki bir oddiy tushuncha emas, balki tub mohiyatga ega va insonning o'zligini anglash, qadrini bilish, erkak va ayol munosabatining shunchaki nikoh yordamida paydo bo'lishi-yu, doimiy saqlanib qolishini mantiqsiz deb hisoblaydi.

Yozuvchi qahramoni Elizabeth o'z atrofidagi qizlardan o'tkir aqli bilan ajralib turadi va aynan shu

narsa tufayli u mister Darsining e'tibori va muhabbatini qozonadi. U atrofdagilar haqida fikr yuritar ekan, insonning ijtimoiy statusi va moliyaviy ahvoliga emas, balki uning qalbiga va o'zligiga alohida e'tibor beradi, vaholangki boshqalar uchun ijtimoiy status va boy qalliq topish masalasi asosiy o'rinda edi. Aynan shu o'tkir aqli va farosati uning g'urur chegarasini belgilab qo'yadi va shu g'urur janob Darsiga nisbatan bo'lган tuyg'ularini oshkor etishga to'sqinlik qiladi. Nikoh ayolning farovon kelajagini ta'minlashning yagona muqobil vositasi bo'lmasa ham, eng maqbul yo'l edi. Ostin davridagi ayollar bunday imkoniyatni qabul qilishlari yoki yaqinlarining qaramog'ida qolishlari kerak.

Nikoh ayollarga muhtojlikdan saqlovchi vosita sifatida «Pride and Prejudice» asarida bir necha bor ifodalangan. Romanda Bennet xonim turmushga chiqmagan ayollarning o'z jamiyatidagi o'rni va mavqeini nafaqat ikkinchi darajali fuqarolar, balki qashshoqlar deb hisoblaydi, chunki u janob Kollinzning tashrifi chog'idagi iltifotlariga javobida shunday deydi:

He had not been long seated before he complimented Mrs Bennet on having so fine a family of daughters, said he had heard much of their beauty... and added, that he did not doubt her seeing them all in due time well disposed of in marriage... Mrs Bennet, who quarreled with no compliments, answered most readily, 'You are very kind, I am sure, and I wish with all my heart it may prove so, or they will be destitute enough. Things are settled so oddly' [1. 66].

Missis Bennet Kollinzning uning qizlarining go'zalligini e'tirof etganda ona ular muvaffaqiyatli turmush qurmaganda qasshoqlikka uchrashi va bu noto'g'rilibini keskin ohangda aytadi.

Ayollar merosga ega bo'lolmaydigan yoki hatto mulkka ega bo'lolmaydigan davr sifatida ular uchun yagona imkoniyat - pul evaziga turmush qurish yoki abadiy qarindoshlariga qaram bo'lish. Bunday noqulay holat «G'urur va andisha»da Bennet xonimning besh qizini munosib erkaklarga turmushga berishga urinishi bilan tasvirlangan. Shunday qilib, ayollar o'zlarini muhtojlikdan saqlab qolish uchun turmush qurishlari kerak. Qashshoqlikdan xalos bo'lish umidi «Pride and Prejudice» romanida bir nechta misollarda aks ettirilgan. Ulardan biri Elizabethning Pemberliga tashrifi paytida, u yerda binoni, uning atrofini va tarkibini ko'zdan kechirar ekan, u bekasi bo'lishini xoxladi:

'And of this place, I might have been mistress! With these rooms I might have been familiarly acquainted! Instead of viewing them as a stranger, I might have rejoiced in them as my own, and welcomed to them as visitors my uncle and aunt'. [1. 253]

Ayol obrazining tasvirida Jeyn Ostin qahramoni Elizabeth Bennet orqali jamiyat ayollarining erkinlikka va erkaklar qatori jamiyatda ham oilada ham teng huquqli bo'lishga intilishlari, baxt va farovon hayot uchun kurashishlari, shuningdek o'sha davr sotsiomadaniy hayotida ayollarning ilg'or harakatlari va o'zlarining intilishlari natijasida erishayotgan qator yutuqlari va natijalarini ko'rsatib berishga harakat qilgan. Yozuvchi asarlarida gavdalantirilgan bosh qahramon ayollar ana shunday hurlikka va erkinlikka intiluvchi, mustaqil fikrlaydigan va o'z dunyoqarashlariga ega bo'lган bo'lган personajlar hisoblanib, bu Jeyn Ostin davrida ayollar o'z mavqeい ba baxti uchun kurasha boshlagani, har bir ayol alohida individual yondashishni talab qiladigan shaxs va jamiyat uchun imkon qadar foyda keltira oladigan, o'zining siyosiy, madaniy va ma'rifiy qarashlariga ega bo'lган, jamiyatda o'z statusiga ega kishi sifatida o'quvchilar hukmiga havola qilingan.

Xulosa. Angliyada hukm surgan Georgian davrida (XVIII asr oxiri XIX asrlar) bir necha ayol adiblar o'z ijod mahsullari bilan dunyoga tanildilar. Jeyn Ostin ular orasida o'ziga xos uslubi bilan ingлиз adabiyotida kirib keldi. O'sha paytlarda yozuvchi ayol sifatida ijod qilish qiyin edi. Ayollarning yozish uslubi erkaklarning yozish uslubiga nisbatan past deb hisoblangan. Turli an'anaviy uslubidan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki:

Birinchidan, Jeyn Ostin ayolni romanning markaziy figurasi deb hisoblagan holda, bosh qahramon ichki kechinma va his-tuyg'ularini yoritishda ayollarga xos fikrlash orqali ifoda etgan.

Ikkinchidan, yozuvchi tomonidan ayollarning ijtimoiy mavqeini o'rnatishga intilishi, ularning jamiyatda qadr-qimmatini izlashga urinishi, hamda, erkaklar ustunlik qiladigan qadriyatlar tizimini buzishga harakat qilishi o'z asarlarida yaqqol o'z ifodasini topa olgan.

Shunday qilib, Jeyn Ostin qahramonining ideal ayol obrazidan farqi shundaki, uning moddiy ahvoli og'ir, tashqi ko'rinishi unchalik jozibador bo'lmasada o'zini erkin fikrlash huquqiga ega bo'lган shaxs deb biladi. Elizabeth Bennet ideal nikoh va muhabbatni qabul qilmagan holda o'z aql-farosati va ma'naviy yuksakligi natijasida asar qahramonlaridan ustun turadi.

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, yozuvchi yaratgan asari orqali o'sha davr ingliz jamiyatiga

xos bo'lgan ijtimoiy-madaniy hayot va insonlar orasidagi oilaviy, erkak va ayol, qarindosh-urug'chilik, oila va jamiyat oldidagi inson burchi, insonning ijtimoiy kelib chiqishiga bog'liq bo'lgan omillar va jamiyatda o'z o'rnini topishida mavqening ahamiyati, buning uchun ota-onaning mas'uliyati va say-harakatlari tasvirlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Jeyn Austen. Pride and Prejudice, 2000.

Izatilloevna, X. D., & Botirovna, B. K. (2023). ROMANTICISM IN “PRIDE AND PREJUDICE”. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(4), 1862-1865.

Izzatullayevna, X. D., & Akbarovna, K. G. (2022, January). Evfemizmlarning zamonaviy tilshunoslikdagi talqini. In Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes (pp. 182-185).

Khodjaeva, D. I. ., & Saidova, Z. T. . (2022). Interaction between Categories of Taxis and Temporality. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(3), 110–113.

Sharafutdinova, D. K., and M. B. Akhmedova. “THE CONCEPT OF GENDER IN ‘SISTER CARRIE’ BY THEODORE DREISER”. Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects (Spain), Feb. 2023, pp. 7-9,

Tanner, T. Jane Austen, Hounds Mills, Basingstokr, Hampshire and London: Macmillan Press Ltd., 1986. — 291 p.

Waldron M. Jane Austen and the fiction of her time. Cambridge: Cambridge University Press 1999. — 320 p.

Weinsheimer J. Chance and the Hierarchy of Marriages in Pride and Prejudice// ELH (1972): Vol.39, No.3, 1972. — P. 404–419.

Рябов О. В. Женственность в философии серебряного века. Иваново: Иванов. гос. ун-т, 1997. 159 с.